

Foydalanish shartnomasi

(Ommaviy oferta)

Ushbu shartnoma bir tomonidan “REPRERESULT SOLUTIONS” MChJ (Jahon internet tarmog’ida ytest.uz nomi ostida(ijtimoiy tarmqolarda rasmiy kanal va guruuhlar) faoliyat olib boradi)(matnda keyingi o’rinlarda “tizim”, “sayt” deb yuritiladi) va ikkinchi tomonidan internet tarmog’ining foydalanuvchilari (har qanday yuridik va jismoniy shaxslar, yakka tartibdagi tadbirkorlar)(matnda keyingi o’rinlarda “Foydalanuvchi” deb yuritiladi)ning ytest.uz sayti orqali pullik xizmatlar ko’rsatish uchun shartnoma tuzish haqidagi rasmiy taklifi (ommaviy oferta) hisoblandi.

1. Umumiy qoidalar

1.1. Ytest.uz - o’quvchilar, nomzodlar, xohlovchilar uchun bilimlarni onlayn tekshirsh, pullik xizmatlar ko’rsatish tizimi (keyingi o’rinlarda “tizim” deb yuritiladi) “REPRERESULT SOLUTIONS” ma’suliyati cheklangan jamiyati (keyingi o’rinlarda “tizim” deb yuritiladi)ga tegishli va u tomonidan boshqariladi. Bu tizim foydalanuvchilari (keyingi o’rinlarda “foydalanuvchi” deb yuritiladi) ushbu ommaviy ofertaga asosan Ytest.uz tizimididan foydalanadi. O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 364-moddasiga ko’ra, mazkur oferta foydalanuvchi bilan ijrochi o’tasidagi qonuniy bitim hisoblanadi.

1.2. Foydalanuvchi Ytest.uz veb-sayti va uning mobil ilovasidan foydalanishi yoki ularda ro’yxatdan o’tishi ushbu oferta bilan tanishganligi va hech qanday istisnosiz uning barcha shartlarini qabul qilganligini bildiradi. Agar foydalanuvchi ofertaning ayrim qismlariga rozi bo’lmasa, tizim imkoniyatlardan foydalanish huquqiga ega bo’lmaydi.

1.3. Foydalanuvchi 1.2-bandda ko’rsatilgan tarzda shartlarni qabul qilgan paytdan boshlab oferta kuchga kirgan hisoblanadi.

1.4. Ijrochi o’z tashabbusiga binoan foydalanuvchilarni ogohlantirmagan holda tizimning ish faoliyatini o’zgartirishi doimiy yoki vaqtincha to’xtatishi yoki ma’lum foydalanuvchilarga cheklashi mumkin.

2. Tizimdan foydalanish

2.1. Ushbu tizimdan voyaga yetgan foydalanuvchi mustaqil foydalanishi mumkin. Voyaga yetmagan foydalanuvchilar ota-onasi yoki vasiy shaxs ruxsati hamda nazorati ostida foydalanish huquqiga ega.

2.2. Tizim orqali foydalanuvchi onlayn repetitions, diagnostik test topshirishi, shuningdek, turli xildagi o’quv qo’llanmalarni xarid qilishi mumkin. Tizimdan quyidagi yo’llar orqali foydalanish mumkin:

- Tizim(saytga)ga tashrif buyurish
- Saytning mobil ilovalaridan foydalanish;
- Saytning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalariga tashrif buyurish

2.3. Tizimda taqdim etiladigan xizmatlar biror rasmiy maqomga ega emas va foydalanuvchiga xech qanday rasmiy maqom taqdim etmaydi.

2.4. Tizimda onlayn test topshirish va boshqa ko’rsatiladigan xizmatlar pullik xizmat hisoblanib ijrochi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan narxnama (preyskuran) asosida foydalanuvchiga taqdim etiladi.

2.5. Tizimdagagi pullik xizmatlardan foydalanish va to’lov shartlari ofertaning 3-bo’limida belgilangan tartib bo’yicha amalga oshiriladi.

2.6. Tizimdan foydalanish vaqtida foydalanuvchi ishlatajotgan qurilmalar (kompyuter, mobil telefon), dasturiy vositalar (brauzer), internet tarmog’ining ish faoliyati va sifati kabi ijrochi vakolatida bo’lmanan omillar uchun ijrochi javobgar emas.

2.7. Ijrochi tizimning xavfsiz va barqaror ishlashi uchun barcha chora-tadbirlar, dasturiy-texnik yechimlarni ishlab chiqish va joriy etish uchun mas’uldir, o’z navbatida foydalanuvchi ushbu tizimda ishslash orqali qurilmaga yoki qurilma faoliyatini boshqaruvchi operatsion tizimga yetkazilishi mumkin bo’lgan zararlar uchun javobgarlikni o’z zimmasiga oladi.

3. Tizimda pullik xizmatlardan foydalanish va to'lov tartibi

3.1. Tizimda pullik xizmatlar internet servis sifatida O'zbekiston Respublikasining "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonuni talablariga muvofiq dasturiy-texnik tashkil etiladi.

3.2. Pullik xizmatlar tizimda ro'yxatdan o'tgan va ayni foydalanish vaqtida foydalanuvchi qayd yozushi (keyingi o'rinnlarda "akkaunt" deb yuritiladi) ga kirgan (keyingi o'rinnlarda "identifikatsiyalash" deb ataladi) foydalanuvchilarga taqdim etiladi.

3.3. Tizimda foydalanuvchini identifikatsiyalash foydalanuvchi taqdim etadigan shaxsiy ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Shaxsiy ma'lumotlarning daxlsizligi shartlari ofertaning 4-bo'limida belgilangan.

3.4. Foydalanuvchi o'z akkaunti orqali bir vaqtda faqatgina bitta qurilma (brauzer, mobil telefon) orqali tizimda ishlashi mumkin.

3.5. Pullik xizmatlar ijrochi tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan preyskurant asosida narxlanadi hamda bir martalik yoki oylik obuna ko'rinishida taqdim etiladi.

3.6. Foydalanuvchiga pullik xizmatlar o'zining ishtiroki vositasida tizimda ma'lum turdagи harakatlarni sodir etgan holda taqdim etiladi.

3.7. Pullik xizmatlarga to'lov quyidagi usullar yordamida amalga oshiriladi:
- bir martalik xizmatlar uchun foydalanuvchining tizimdagи hisob raqami (keyingi o'rinnlarda "balansi" deb yuritiladi)dan pul yechib olish evaziga;
- oylik obunalar uchun foydalanuvchi balansdan pul yechib olish yoki ijrochi tomonidan ruxsat etilgan onlayn to'lov tizimlari vositasida sotib olish evaziga.

3.8. Foydalanuvchi o'z balansini to'ldirish hamda oylik obuna sotib olishni ijrochi tomonidan ruxsat etilgan hamda tizimga dasturiy-texnik jihatdan integratsiyalashgan onlayn to'lov tizimlari orqali amalga oshiradi.

3.9. Onlayn to'lov tizimlari orqali to'langan summalar tizimda elektron hisob ko'rinishida yuritiladi va foydalanuvchiga axborot mazmunida taqdim etiladi.

3.10. Foydalanuvchi o'z balansini ijrochi tomonidan ishlab chiqarilgan hamda ijrochi bilan shartnomaga asosida faoliyat yurituvchi shaxslar tomonidan tarqatiladigan to'lov kod-varaqalari yordamida ham to'ldirishi mumkin. To'lov kod-varaqasi foydalanuvchi tomonidan aktivlashtirilgan holatda uning summasi foydalanuvchi balansiga o'tkaziladi.

3.11. Foydalanuvchi balansidan yechib olingen mablag'lar hamda foydalanuvchi sotib oladigan oylik obunalarning summasi, miqdori, sanasi va uning boshqa detallari elektron chek varaqasi sifatida tizimda doimiy saqlanadi va "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunga asosan ushbu cheklar haqiqiy chekka tenglashtiriladi.

3.12. Foydalanuvchi xizmat sifatidan qoniqmagan taqdirda u sotib olgan oylik obunalarning puldag'i qiymati oylik obunaning muddati o'tmagan kunlari uchun qayta hisoblanib foydalanuvchi balansiga o'tkazib beriladi.

3.13. Foydalanuvchi balansidagi sarf etilmagan mablag'larni istalgan paytda qaytarib olish huquqiga ega. Bunda mablag'lar foydalanuvchi talabnomasiga binoan ijrochi va foydalanuvchi o'rтasida tuzilgan huquqiy shartnomaga asosan qaytariladi. Ijrochi tomonidan rag'batlantirish, bonus, mukofot, sovg'a sifatida foydalanuvchi balansiga o'tqazilgan mablag'lar bundan mustasno.

3.14. Foydalanuvchi tomonidan tizimda pullik xizmatlari uchun sarf etilgan mablag'lar ijrochi tomonidan qaytarib berilmaydi.

3.15. Foydalanuvchi tomonidan tizimda amalga oshirilgan barcha harakatlar, jumladan to'lovlar ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladi hamda ularning to'g'riliги uchun ijrochi javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

3.16. Pullik xizmatlar ijroji tomonidan mustaqil belgilanadi va istalgan vaqtda to'lov miqdorini foydalanuvchini ogohlantirmsandan o'zgartirish huquqiga ega

3.17. Foydalanuvchi tizimdan faqatgina notijoriy maqsadda foydalanish huquqini oladi. Tizimdagи ma'lumotlar, xizmatlar, resurslar tizimning xususiy muki hisoblanib, ularni ko'chirib olish, har qanday shaklda tarqatish ta'qiqlanadi

4. Shaxsiy ma'lumotlar daxlsizligi

- 4.1.** Shaxsiy ma'lumotlar toifasiga tizimda ro'yxatdan o'tish jarayonida foydalanuvchi ixtiyori bilan taqdim etiladigan quyidagi ma'lumotlar kiradi:
- | | | | |
|-----------------|-------|-------------|----------|
| - Foydalanuvchi | ismi, | ma'lumotlar | sharifi; |
| - Foydalanuvchi | mobil | familyasi, | raqami; |
| - Foydalanuvchi | kalit | telefon | so'zi; |
- Mobil ilovadan foydalangan taqdirda qurilmaning ma'lumotlari (operatsion tizim versiyasi, modeli, identifikatsion nomeri);

4.2. Tizimda ro'yxatdan o'tish jarayonida foydalanuvchi taqdim etadigan shaxsiy ma'lumotlar to'g'rili va aniqligiga foydalanuvchi javobgardir. O'zga shaxslarning shaxsiy ma'lumotlari (ism-sharif, mobil telefon raqami)ni taqdim etish qonunga asosan taqiqlanadi. Agar foydalanuvchi ro'yxatdan o'tish jarayonida noto'g'ri ma'lumotlarni kiritganligi aniqlansa, ijrochi ushbu akkauntni tizimda bloklash yoki o'chirish huquqiga ega.

4.3. Shaxsiy ma'lumotlar tizimda faqatgina foydalanuvchini identifikatsiyalash uchun ishlatiladi, ijrochi tomonidan ularni tijorat maqsadida yoki uchinchi shaxslarga taqdim etish taqiqlanadi, qonunda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno.

4.4. Shaxsiy ma'lumotlarning sir saqlanishi kafolatlanadi va uning tizim xotirasida daxlsiz saqlanishi ijrochi tomonidan dasturiy-texnik asosda tashkil etiladi.

4.5. Foydalanuvchi tizimga taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarni sir saqlashi va boshqa shaxslar ixtiyoriga topshirmaslik bo'yicha majburiyatni o'z zimmasiga oladi.

4.6. Tizimda bir foydalanuvchining identifikatsiyalash ma'lumotlari boshqa bir shaxslar, bot dasturlar (avtomatlashtirilgan ssenraiylar, skriptlar) tomonidan ishlatilayotganligi aniqlansa ushbu foydalanuvchi akkaunti va IP-manzili tizimda blokланади hamda ogohlantirishsiz o'chiriladi. Bloklangan yoki o'chirilgan akkaunt balansida tizim xizmatlari uchun sarflanmagan mablag'larni foydalanuvchiga qaytarish 3.13-banda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

4.7. Foydalanuvchining mobil telefon raqami unga tizim faoliyati yuzasidan SMS xabarnomalar va foydalanilgan pullik xizmatlarning elektron chek varaqasini jo'natish hamda foydalanuvchini tizimda identifikatsiyalash uchun ishlatiladi. Foydalanuvchi mobil telefon raqamini o'zgartirgan holatda tizimdagи sozlamalar orqali yangi telefon raqamini o'z akkauntiga biriktirib qo'yish majburiyatini oladi.

4.8. Bundan tashqari tizim faoliyatini monitoring va statistik tahlil qilish uchun foydalanuvchi qurilmasi, uning harakatlari haqidagi quyidagi ma'lumotlar tizimda himoyalangan holda yig'iladi:

- foydalanuvchining internet provayderi taqdim etgan IP-manzili;
- foydalanuvchi brauzeri va operatsion tizim turi haqidagi ma'lumotlari;
- tizimda ro'yxatdan o'tish, identifikatsiyalash va xizmatlardan foydalanish vaqtлari;
- foydalanuvchi ko'rib chiqqan sahifalari va havolalar.

4.9. Agar foydalanuvchining akkauntidan foydalanish huquqi uchinchi shaxslar tomonidan turli yo'llar bilan o'zlashtirib olinganligi ma'lum bo'lsa, ijrochi foydalanuvchi uchun o'z akkauntini qayta tiklash imkoniyatini yaratib berishga majbur. Biroq akkaunt uchinchi shaxs qo'lida bo'lgan vaqtida amalga oshirilgan harakatlar natijasida yetkazilgan zararlarni ijrochi qoplash majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi, ijrochining aybi bilan sodir etilgan hollar bundan mustasno.

4.10. Foydalanuvchi talabnomasiga binoan tizimda uning akkaunti o'chirilishi hamda akkaunt bilan birgalikda uning shaxsiy ma'lumotlari tizim xotirasidan o'chirilishini ijrochi ta'minlanaydi.

5. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Mazkur shartnomada keltirilgan shartlarni bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

5.2. Tizimga joylangan barcha matnli ma'lumotlar, grafik tasvirlar va xizmatlar qonuniy muallifiga ega bo'lib, ushbu materiallardan noqonuniy foydalanish amaldagi qonunchilik bo'yicha ta'qib qilinadi.

6. FORS-MAJOR

6.1. Agar shartnomada ko'rsatilgan shartlar mazkur shartnoma imzolangandan keyin bartaraf qilib bo'lmaydigan sabablar tufayli bajarilmay qolsa, tomonlarning har biri shartlarni to'liq yoki qisman bajarmaslik oqibatida paydo bo'ladigan javobgarlikdan ozod etiladi.

6.2. «Bartaraf qilib bo'lmaydigan sabablar» deganda favqulodda holatlar yoki muayyan taraf o'ziga tegishli vositalar orqali avvaldan ko'ra bilmagan yoki oldini ololmagan vaziyatlar tushuniladi. Bunday favqulodda holatlar hamda vaziyatlarga jumladan: ish tashlashlar, suv toshqini, yong'in, zilzila va boshqa tabiiy ofatlar, urush, harbiy harakatlar, O'zbekiston Respublikasi yoki boshqa davlatlardagi organlar faoliyati, shu bilan birga, tomonlarning oqilona nazoratidan chetda bo'lgan har qanday vaziyatlar kiradi.

6.3. Tomonlarning birortasiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadigan amaldagi qonunchilik yoki normativ hujjatlarning o'zgartirilishiga bartaraf etib bo'imas holat sifatida qaralmaydi. Biroq, tomonlarning mazkur shartnomaga asosan majburiyatlarini bajarishga yo'l qo'ymaydigan bunday qonun o'zgarishlari kiritilgan taqdirda, tomonlar ushbu muammolarni bartaraf etish va mazkur shartnoma shartlarini bajarishda davom etish bo'yicha ishslash tartibiga doir kechiktirib bo'imas qaror qabul qilishlari talab etiladi.

7. Boshqa shartlar

7.1. Ushbu ommaviy oferta foydalanuvchi va "REPRERESULT SOLUTIONS" MCHJ o'rtasidagi qonuniy bitim hisoblanib, foydalanuvchi va ijrochi o'rtasidagi huquq va majburiyatlarni belgilaydi. O'z navbatida ushbu ommaviy ofertada belgilangan tomonlarning huquq va majburiyatları O'zbekiston Respublikasi qonunlari doirasida tartibga solinadi.

7.2. Foydalanuvchi ham, ijrochi ham ushbu ommaviy oferta shartlarini qabul qilish va bajarish vaqtida boshqa bir uchinchi tomon oldida hech qanday majburiyatlarini o'z zimmasiga olmaydi, yozma kelishuvwsiz o'z huquq va majburiyatlarini uchinchi shaxsga o'tkazmaydi.

7.3. Ofertada nazarda tutilmagan masalalar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiliigi asosida tartibga solinadi.

7.4. Foydalanuvchi hamda ijrochi o'rtasida nizo kelib chiqqan taqdirda, eng avvalo o'zaro kelishuv asosida hal qilishga harakat qilinadi. Buning imkonni bo'lmaganda nizo qonunda belgilangan tartibda hal qilinadi.

7.5. Ofertaning biron bandi ayrim sabablarga ko'ra haqiqiy emas deb topilsa yoki yuridik kuchga ega emas deb baholansa, bu ofertaning qolgan bandlarining haqiqiyligiga ta'sir qilmaydi.

7.6. Ijrochi ommaviy oferta shartlarini o'zgartirish yoki qayta ko'rib chiqish huquqiga ega. Ijrochi bunday o'zgarishlar haqida tizimda barcha ochiq o'qishi mumkin bo'lgan e'lon bergen holda foydalanuvchilarni kamida 10 kun oldin ogohlantirishi zarur. O'zgarishlar kuchga kirgandan so'ng foydalanuvchining tizim xizmatlaridan foydalanishi, uning yangi shartlarga roziligini bildiradi.